

“KO‘RLIK”– INSONIYATNING MA’NAVIY INQIROZI TASVIRI*Abdullayeva Ro‘zibuvi Lutfullayevna**Samarqand davlat pedagogika instituti 2-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Ko‘rlik — Jose Saramago tomonidan yaratilgan asar bo‘lib, unda insoniyatning ma’naviy ojizligi jismoniy ko‘rlik timsolida yoritiladi. Asarda noma’lum sabab bilan odamlarning birin-ketin ko‘r bo‘lib qolishi orqali inson tabiatining eng zaif va qorong‘u jihatlari ochib beriladi. Muallif ushbu roman orqali insoniyatning nafaqat jismonan, balki ma’naviy jihatdan ham “ko‘r” bo‘lib borayotganini ramziy tarzda ifodalaydi. Asar davomida tartib-intizomning buzilishi, shafqatsizlik, hamda shaxsiy manfaatni ustun qo‘yish kabi illatlar keskin tanqid qilinadi. Mazkur asar o‘quvchini chuqur mushohadaga chorlab, insoniy qadriyatlarning ahamiyatini anglashga undaydi.

Kalit so‘zlar: Ko‘rlik epidemiyasi, shifokor, shifokorning xotini, qora ko‘zoynakli qiz, qariya, g‘ilay bolakay, ko‘z yosh iti, birinchi ko‘r.

“СЛЕПОТА”— ОТРАЖЕНИЕ ДУХОВНОГО КРИЗИСА ЧЕЛОВЕЧЕСТВА*Абдуллаева Рузибуви Лутфуллаевна**студентка 2 курса Самаркандского государственного педагогического института*

Аннотация: “Слепота” — произведение, созданное José Saramago, в котором духовная слабость человечества раскрывается через символ физической слепоты. В романе посредством того, что люди один за другим теряют зрение по неизвестной причине, показываются самые слабые и тёмные стороны человеческой природы. Автор в данном произведении символически выражает мысль о том, что человечество становится «слепым» не только физически, но и духовно. В ходе развития сюжета резко критикуются такие явления, как нарушение порядка, жестокость и стремление ставить личные интересы выше всего. Данное произведение побуждает читателя к глубоким размышлениям и осознанию значимости человеческих ценностей.

Ключевые слова: эпидемия слепоты, врач, жена врача, девушка в чёрных очках, старик, косоглазый мальчик, собака слёз, первый слепой.

“BLINDNESS” — A REFLECTION OF THE MORAL CRISIS OF HUMANITY*Abdullayeva Ro‘zibuvi Lutfullayevna**2nd-year student of Samarkand State Pedagogical Institute*

Annotation: “Blindness” is a work created by José Saramago, in which the spiritual weakness of humanity is depicted through the symbol of physical blindness. In the novel, the gradual loss of sight by people for unknown reasons reveals the weakest and darkest aspects of human nature. Through this work, the author symbolically expresses that humanity is becoming “blind” not only physically but also spiritually. Throughout the narrative, such issues as the breakdown of order, cruelty, and the prioritization of personal interests are sharply criticized. This work encourages the reader to engage in deep reflection and to understand the importance of human values.

Keywords: blindness epidemic, doctor, doctor’s wife, girl with dark glasses, old man, squint-eyed boy, dog of tears, the first blind man.

Roman 1995-yilda yozilgan bo‘lib, unda jamiyatdagi yashirin muammolar va insoniylik inqirozi keskin ochib berilgan. Yozuvchi asar orqali insonlarning murakkab vaziyatlarda o‘z manfaatlarini yo‘lida qanday vahshiyliklarga borishini tasvirlashga harakat qiladi. Asar boshida keltirilgan: “Ko‘ra olsang — qara, qaray olsang — kuzat” epigrafi chuqur ma‘no kasb etadi. Ushbu jumla orqali muallif insonni atrof-muhitni anglashga va voqealarga befarq bo‘lmaslikka undaydi. Roman voqealari svetoforda sodir bo‘lgan g‘ayrioddiy holat bilan boshlanadi. Qizil chiroq yonganiga qaramay, bir avtomobil harakatlanmay qoladi. Ma‘lum bo‘lishicha, haydovchi to‘satdan ko‘r bo‘lib qolgan edi. Shu tariqa asarda “birinchi ko‘r” obrazi paydo bo‘ladi. E‘tiborli jihati shundaki, romanda qahramonlarning aniq ismlari berilmaydi. Ular “birinchi ko‘r”, “shifokor”, “shifokorning xotini”, “qora ko‘zoynakli qiz”, “qora ko‘zbandli qariya” kabi nomlar bilan ataladi. Bu esa muallifning umumlashma obraz yaratishga intilganini ko‘rsatadi. Insoniylik qadriyatlarining yo‘qolishi asarda chuqur tahlil etilgan. Shahardagi barcha epidemiyaga chalinganlar karantinga olingan vaqtda, tartib qoidaga rioya qilmaslik, insonlarning bir-biriga bo‘lgan nafrati, “Baribir hech kim ko‘rmaydiku” deya jirkanch ishlarga yo‘l qo‘yish holatlari kuzatiladi. Bu bilan yozuvchi so‘qirlar birgina qiyinchilik tufayli mana shunday vahshiyliklarga yo‘l qo‘yishini mahorat bilan yoritib bergan.

Albatta, romanda yaxshi inson obrazlari ham yo‘q emas. Shifokor va shifokorning xotini hech qanday manfaatsiz hech kimdan yordamlarini ayashmaydi. Ayniqsa, “shifokorning xotini” obrazi umid timsoli sifatida keltirilgan. Ushbu obraz orqali insoniylik tuyg‘ulari hali to‘liq yemirilmaganini kuzatish mumkin. Ayol “Ko‘rlik” epidemiyasi boshlangandan tugagunga qadar insonlarga yordam beradi, har qanday og‘ir vaziyatda, ularni tark etib ketmaydi. Hattoki yetti yot begonalardan ham yordamini ayamaydi. U o‘z sheriklariga “to ko‘rmay qolgunimcha sizlarga yordam beraman”-deya va‘da beradi. Bu ayol asar so‘ngigacha ham so‘qirlikka chalinmaydi. Uning sheriklari uchun barcha qiyinchiliklarga bardosh berishi orqali ham oqko‘ngil,

kuchli irodali insonligini anglash mumkin.

So‘qirlikka chalingan qahramonlar uchun juda oz miqdorda ovqat berilardi, ammo “bezorilar guruhi” paydo bo‘lgandan so‘ng, vaziyat yanada og‘irlashdi, endi so‘qirlar yashash uchun, ovqat uchun kurashishlariga to‘g‘ri keladi. Bezorilar so‘qirlardan barcha tilla-yu, qimmatbaho buyumlarini talab qilishadi. Asarning aynan mana shu nuqtasi o‘qiguvchini chuqur o‘yga toldiradi, ya’ni so‘qir insonga zeb-ziynat-u taqinchoqlarning keragi yo‘q. Roman orqali jamiyatning boylikka o‘chligi, ayrim insonlar og‘ir vaziyatda bir-birini himoya qilish o‘rniga o‘z manfaatini ustun qo‘yadigan insonlar safi keng ekanligi anglashiladi. Muallif ushbu holatlar orqali inson tabiatidagi yashirin illatlarni badiiy mahorat bilan ochib beradi.

Romanda eng e’tiborli jihatlardan biri shundaki, ko‘rlikka birinchi bo‘lib duch kelgan qahramon keyinchalik birinchi bo‘lib yana ko‘ra boshlaydi. U shifokorga: “Men ko‘ryapman, doktor, men ko‘ryapman, hatto avvalgidan ham yaxshiroq ko‘rayotgandekman”, — deya murojaat qiladi [Saramago, 391-bet]. Ushbu holat o‘quvchida beixtiyor quvonch hissini uyg‘otadi. Chunki asar davomida o‘quvchi qahramonlar bilan ruhiy yaqinlik hosil qilib, ularning taqdirini o‘ziga yaqin qabul qila boshlaydi. “Menimcha, biz so‘qirlikni yuqtirib olmaganmiz, azaldan so‘qir bo‘lganmiz, ko‘radigan, lekin ko‘rolmaydigan so‘qirlar” [Saramago, 396-bet] jumlasini orqali yozuvchi jamiyatdagi ma’naviy ko‘rlik, befarqlik va insoniy qadriyatlarining susayib borayotganini chuqur falsafiy mazmunda ochib beradi. Ushbu fikr orqali muallif insonlar jismonan sog‘lom bo‘lsa-da, ko‘pincha haqiqatni anglash, boshqalarning dardini his etish va adolatni ko‘ra bilish qobiliyatidan mahrum ekanini ta’kidlaydi.

Asar yakuni o‘quvchini chuqur o‘yga toldiradi. “Shifokorning xotini pastdagi axlat to‘la ko‘chaga, baqir-chaqir qilayotgan, qo‘shiq aytayotgan odamlarga tikildi. Keyin boshini ko‘tarib osmonga qaradi — hamma narsa oppoq bo‘lib ko‘rindi. Ongida shunday o‘y yashindek chaqnadi: ‘Navbat menga keldi...’” [Saramago, 396-bet]. Kitobning keyingi sahifasini ochishdan oldin o‘quvchida unga nisbatan achinish hissi uyg‘onadi. Biroq voqealar boshqacha yakun topadi. Asar oxirida: “Nigohini darrov pastga yo‘naltirdi. Shahar hamon qarshisida turardi”, — deb yoziladi. Ushbu jumla o‘quvchiga ma’lum bir yengillik bag‘ishlaydi va asar shu tarzda yakunlanadi.

Xulosa qilib aytganda, Ko‘rlik romani insoniyatni o‘z ma’naviy holati haqida o‘ylashga undovchi falsafiy asardir. Unda tasvirlangan voqealar orqali muallif jamiyatni befarqlikdan voz kechib, insoniylik qadriyatlarini asrashga chorlaydi. Bundan tashqari, ushbu asarni o‘qigan inson o‘ziga berilgan ne’matlarga shukur qilishni ham anglab yetadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. J. Saramago “Korlik”. Inson nashriyoti. 2025
2. conferencea.org
3. uz.wikipedia.org
4. ziyouz.com